



JIZZAX VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

*2020- yil 1- sentabr holatiga ko'ra
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*



Mamlakatimizda oxirgi yillarda tadbirkorlik subyektlariga ko'rsatilayotgan e'tibor

Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.

Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.

Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.

Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxonalar va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.

Korxonalar va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2020-yil 1-sentabr holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni


(1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)



Mamlakatimizda qulay ishbiarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbir qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Korxonalar va tashkilotlar soni

(2020- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)



Yuridik shaxs:

Yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot **yuridik shaxs** hisoblanadi.

Ro'yxatdan o'tgan tijorat korxonalari soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2020- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)

10 873



Mas'uliyati cheklangan jamiyat

1 146



Oilaviy korxonona

145



Unitar korxonona

4 773



Xususiy korxonona

20



Aksiyadorlik jamiyati

288



Boshqa korxonalar

mas'uliyati cheklangan jamiyat
birlik



xususiy korxonona
birlik




Mas'uliyati cheklangan jamiyat


Bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati mas'uliyati cheklangan jamiyat deb hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlari qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagani ishtirokchilari, jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (1- sentabr holatiga ko'ra)



Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2020- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)



Aksiyadorlik jamiyati:

Ustav fondi muayyan aksiyalar soniga bo'lingan jamiyat – aksiyadorlik jamiyati hisoblanadi;


– aksiyadorlik jamiyatining ishtirokchilari (aksiyadorlar) uning majburiyatlari bo'yicha javob bermaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zarar uchun o'zlariga qarashli aksiyalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Aksiyalar haqini batamom to'lamagan aksiyadorlar, aksiyadorlik jamiyatining majburiyatlari bo'yicha, o'zlariga qarashli aksiyalar qiymatining to'lanmagan qismi doirasida solidar javobgar bo'ladilar.


Aksiyadorlik jamiyatining firma nomida, jamiyatning nomi hamda bu jamiyat aksiyadorlik jamiyati ekanligi o'z ifodasini topishi kerak.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni


(yanvar- avgust oylarida, birlikda)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar-avgust oylarida)




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha tarkibi (2020- yil yanvar-avgust oylarida, umumiy sonidagi ulushi)




2020- yilning yanvar-avgust oylarida 2 685 tadan ortiq korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi. Shundan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 1 814 ta, xususiy korxonalar – 336 ta, oilaviy korxonalar – 368 ta, muassasalar – 40 ta va boshqalar – 127 tani tashkil etdi.

Qishloq, oʻrmon va baliq xoʻjaligida faoliyat koʻrsatayotgan korxonalar va tashkilotlar


(2020- yil 1- sentabr holatiga koʻra, birlikda)




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni




Mikrofirmalar




Kichik korxonalar




Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




Oilaviy korxonalar



Faoliyat koʻrsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



Xususiy korxonalar




Sanoat yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2020-yil 1-sentabr holatiga ko'ra, birlikda)




Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **17,1** foizga oshdi




Kichik tadbirkorlik subyektlari




16,9 foizga oshdi



Mikrofimlar




Kichik korxonalar




Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar



17,2 foizga oshdi



Oilaviy korxonalar




47,2 foizga oshdi




Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



O'tgan yilga nisbatan **4,0** foizga oshdi



Xususiy korxonalar



5,3 foizga oshdi




Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)




Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **13,7** foizga oshdi




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni




13,6 foizga oshdi



Mikrofirmalar




Kichik korxonalar



Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




19,7 foizga oshdi



Oilaviy korxonalar




40,0 foizga oshdi




Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



O'tgan yilga nisbatan **90,0** foizni tashkil etdi




Xususiy korxonalar




O'tgan yilga nisbatan **98,7** foizni tashkil etdi




Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni




Mikrofirmalar




Kichik korxonalar



Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




Oilaviy korxonalar




Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



Xususiy korxonalar



Oilaviy korxonalar soni (1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)



Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2020- yilning 1- sentabr holatiga ko'ra 1 146 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 406 taga yoki 154,9 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 1 076 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 375 taga yoki 153,5 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


2020- yil yanvar- avgust oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 368 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 163 taga yoki 179,5 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni (1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)


Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2020- yilning 1- sentabr holatiga ko'ra 10 873 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 126 taga yoki 124,9 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 10 486 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 113 taga yoki 125,2 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


2020- yil yanvar- avgust oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 1 814 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 123 taga yoki 6,4 % ga kamayganligini ko'rish mumkin.



Kichik tadbirkorlik subyektlari soni (2020- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni (2020- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)




Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni 2020- yil 1- sentabr holatiga ko'ra 199 tani tashkil etib, ulardan 191 tasi yoki 96,0 % i faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 14 taga yoki 107,9 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2020- yil yanvar- avgust oylarida Jizzax viloyatida 15 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni

(1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)




Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni

(1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)

	2016- yil	2017- yil	2018- yil	2019- yil	2020- yil
Jami	3 889	4 976	6 109	8 373	10 486
<i>shu jumladan:</i>					
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	498	814	1 111	1 420	1 837
Sanoat	786	1 004	1 245	1 658	1 909
Qurilish	575	699	849	1 251	1 490
Savdo	1 009	1 148	1 405	2 106	2 793
Tashish va saqlash	233	307	340	426	475
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	244	325	389	480	563
Axborot va aloqa	43	58	61	82	103
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	43	61	81	114	134
Boshqa turlar	458	560	628	836	983

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni

(2020- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)




Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)

	2016- yil	2017- yil	2018- yil	2019- yil	2020- yil
Jami	72	73	106	177	191
<i>shu jumladan:</i>					
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	3	5	17	27	28
Sanoat	56	56	63	101	105
Qurilish	3	2	3	10	9
Savdo	5	4	13	21	28
Tashish va saqlash	2	3	3	5	4
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	-	-	1	5	4
Axborot va aloqa	1	1	1	3	3
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	-	-	-	-	1
Boshqa turlar	2	2	5	5	9

Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2020-yil 1-sentabr holatiga ko'ra, birlikda)



**Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni**
(2020- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)

	Jami	shundan:	
		qo'shma korxonalar	xorijiy korxonalar
Jizzax viloyati	191	122	69
Jizzax shahri	67	49	18
<i>tumanlar:</i>			
Arnasoy	7	5	2
Baxmal	8	5	3
G'allaorol	17	11	6
Sharof Rashidov	17	9	8
Do'stlik	3	1	2
Zomin	16	9	7
Zarbdor	3	2	1
Zafarobod	8	2	6
Mirzacho'l	2	-	2
Paxtakor	9	8	1
Forish	23	17	6
Yangiobod	11	4	7

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Jizzax shahrida 67 ta (umumiy miqdoridagi ulushi 35,1 %), Forish tumanida 23 ta (12,0 %), Sharof Rashidov tumanida 17 ta (8,9 %), G'allaorol tumanida 17 ta (8,9 %), Zomin tumanida 16 ta (8,4 %), Yangiobod tumanida 11 ta (5,7 %) hamda Paxtakor tumanlarida 9 tani (4,7 %) tashkil etadi.

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2020- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)




2020- yil 1- sentabr holatiga ko'ra ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Jizzax shahri (29,8 %), Sharof Rashidov (16,0 %), Zomin (8,2 %), G'allaorol (8,1 %), Forish (6,9 %), Baxmal (6,0 %), Zarbdor (4,7 %), Paxtakor (4,2 %), Do'stlik (4,1 %), Mirzacho'l (3,6 %), Arnasoy (3,1 %), Zafarobod (3,1 %) va Yangiobod (2,2 %) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2020- yil yanvar- avgust oylarida, birlikda)

2020- yil yanvar-avgust oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, ularning soni Jizzax shahrida (23,2 %), Sharof Rashidov (12,6 %), G'allaorol (10,5 %), Zomin (8,0 %), Baxmal (7,6 %), Forish (7,4 %), Zarbdor (6,0 %), Paxtakor (5,1 %), Do'stlik (5,0 %), Zafarobod (4,1 %), Arnasoy (3,8 %), Mirzacho'l (3,5 %) va Yangiobod (3,2 %) tumanlari ulushiga ega.



Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri – axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 275-son qarorining 1-ilovasiga muvofiq kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri



Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining www.stat.uz va Jizzax viloyati statistika boshqarmasining www.jizzaxstat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

Jizzax viloyati statistika boshqarmasi
Statistik registrlarni yuritish bo'limi
Tel.: 72 221-51-24